

ONA TILI – MILLIY O‘ZLIK VA MADANIYATNING ASOSI

Otaxonova Zulfizarxon Askarovna

Andijon viloyati, Izboskan tumani

26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili

va adabiyot fani 1- toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada millatning borligini ko‘rsatgan oynayijahoni bo‘lgan o‘zbek tilining millatimizning ongida qanday aks etgani va tilimizning kelajak avlodga qanday xizmat qilishi kerakligi haqida fikr bildiriladi.

Kalit so‘zlar: til, millat, g‘urur, turmush tarzi

O‘zbek tili kambag‘al emas,
balki o‘zbek tilini kambag‘al
deguvchilarning o‘zi kambag‘al.
Ular o‘z nodonliklarini
o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”.

Abdulla Qodiriy

Ona tili – har bir xalqning milliy o‘zligini, tarixiy merosini va madaniyatini ifodalovchi eng muhim vosita bo‘lib, xalqning ruhiy va ijtimoiy hayotida markaziy o‘rin tutadi. Tili milliy o‘zlikni anglash va saqlashning asosiy omili sifatida nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ma’naviy merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini va turmush tarzini shakllantiruvchi muhim elementdir.

Ona tili, milliy tafakkur, tarix va madaniyatning yuksalishi bilan bevosita bog‘liqdir. Har bir til o‘ziga xos bo‘lib, unda millatning tarixiy tajribasi, g‘oyaviy qarashlari, tasavvurlari va dunyoqarashi aks etadi. O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatida ona tili, avvalo, o‘zbek xalqining ajralmas qismi va uning madaniyati va

milliy ma'naviyatining ifodasidir. Ona tilida so'zlashish va uni o'rganish, avvalo, o'z xalqiga bo'lgan muhabbatni, uni qadrlashni, xalq tarixiga hurmatni aks ettiradi.

Ona tili va milliy o'zlik

Milliy o'zlikni anglash jarayonida ona tilining o'rni ulkan. Ona tili nafaqat kundalik suhbatlarda qo'llaniladigan aloqa vositasi, balki har bir millatning ruhiyatini, uning tarixini, urf-odatlarini, e'tiqodini va madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omildir. O'zbek tilining o'ziga xosligi, uning boy so'z boyligi va til strukturasi xalqning milliy o'zligini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Ona tilida yozilgan adabiy asarlar, she'rlar, maqollar va matnlar xalqning ma'naviy dunyosini, uning qarashlarini, qadriyatlarini va hayotiy tajribalarini aks ettiradi. Har bir millat tilining o'ziga xosligi uning madaniyati va identifikatsiyasining asosiy omili sifatida qadrlanadi. O'zbek tilining o'ziga xosligi uning tarixiy merosi, grammatik tuzilishi va nutqning estetik yuksakligi orqali ko'rsatiladi.

Ona tili va madaniyat

Madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi til orqali amalga oshadi. Madaniyatni ifodalashda ona tilining ahamiyati beqiyosdir, chunki til xalqning tarixini, madaniy merosini, urf-odatlarini, adabiyotini va san'atini saqlash va o'rganishda eng muhim vositadir. Ona tili orqali adabiyot, musiqa, san'at, tasavvuf va boshqa madaniy elementlar birlashtiriladi va zamonaviy jamiyatda davom ettiriladi.

Ona tili orqali xalqning badiiy tafakkuri, estetik didi va ma'naviy qadriyatlari yuksaladi. Adabiyotda ifodalangan o'zbek xalqining hayotiy tajribalari, urf-odatlari va e'tiqodlari til orqali o'quvchilarga etkaziladi. Madaniyatning o'ziga xos elementlari – musiqa, san'at, drama va teatr, hamda til orqali bir-biriga bog'lanadi va o'quvchilarni milliy madaniyatga bog'lashda muhim ahamiyatga ega.

Tarix guvohki, mana bir necha ming yillardan beri ona tilimiz hanuzgacha o‘zining ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. O‘zbek tilining eng ahamiyatli jihati shundaki, u shunday shirali, har bir quloqqa xush yoqadi, eshitgan inson entikib ketadi. Jonajon tilimiz, shoir Mirtemir aytganidek, yoshligimizdanoq jon-u qulog‘imizga singib ketgan. Onalarimiz aytgan allalari-yu, bobo-buvilarimizdan eshitgan ertak, hikoya, rivoyat va masallar orqali yuragimiz tub-tubigacha kirib borgan, o‘z navbatida ona tilimizga, ona vatanimizga muhabbat uyg‘otgan.

O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z ona tilisini sevadi, uni hurmat qiladi va e‘zozlaydi. Chunki aynan shu til orqaligina har qanday millatning qay tarzda yashayotganligini, rivojlanayotganligini, yoki aksincha, orqada qolayotgan va qashshoqlashib borayotganligini bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham bejizga: “Til – millat ko‘zgusi”, - deyishmaydi.

1989-yil 21 oktyabr. "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinib, o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lgan ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Shu tariqa o‘zbek tili davlatimizning bayrog‘i gerbi, madhiyasi kabi qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramzlari qatori e‘zoz va ehtiromga sazovor bo‘ldi. Keyingi yillarda Davlat tilining ijtimoiy hayotda tutgan mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

21-oktyabrdagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi. Bundan ko‘zlangan maqsad Davlat tilini rivojlantirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash, o‘zbek tilining yozma matni me‘yor va qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

Milliy tilimizga, ona tilimizga bo'lgan e'tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o'rinda bobolarimiz aytgan quyidagi purma'no fikrlarni eslaylik: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgon oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur" (M.Behbudiy) e'tibor beryapsizmi, milliy tilni yo'qotmak millat tilini yo'qotmakka qiyoslanmoqda. Darhaqiqat, tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa, bugungi globallashuv dunyo xalqlarining turmush tarzi umumiylik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so'zlarning zalvori ikki hissa ortadi.

Til – millat ko'zgusi, ma'naviyat sarchashmasidir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov bejizga ona tilimizni: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir" deya e'tirof qilmagan. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar.

Yozuvchi va shoirlarimiz tilimiz haqida ko'plab purma'no hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Abdulla Oripov o'zbek tili yo'qolsa, to'tiga aylanib qolishini, erkin Vohidov ona tilimiz o'lmasligini bot-bot ta'kidlaydi. Rasul Hamzatov esa ona tilisi yo'qolsa, hatto o'limga ham rozi ekanligini qalamga oladi.

Ona tilimiz hisoblanmish o'zbek tilini maqtab, uni madh etib, hattoki shu mavzuda qasidalar yozib, qalam tebratgan shoir-u shoirlarimiz nihoyatda bisyor. Masalan, qalami o'tkir shoir Rauf Parfining:

Hayhot, toptaganda arab-u mo'g'ul,

Hayotingning zanjirli yili.

Boshdan ne kechirding mardona o'g'il,

O'zbek tili, o'zbek tili, – deya aytilgan yuqoridagi she'rida yurtimizni ko'chmanchilar istilo qilganda ham, garchi bosib olib, o'z tili, mafkurasini o'rnatishga

harakat qilgan bo'lsalar-da, o'zbek millati o'zining eng qimmatli boyligi, ya'ni ona tilisini yo'qotmaganligi aks etgan. Yoki shu voqealarning davomi sifatida Xurshid Davronning quyidagi she'rini keltirishimiz mumkin:

Kelib ketdi necha dunyolar,

Kuldi hayot, yig'ladi o'lim.

Sen deb qurbon bo'ldi bobolar,

Ular ketdi, sen qolding, tilim.

Shu voqealarni eslab, Muhammad Yusufning quyida yozgan she'rini o'qib, beixtiyor o'yga toladi kishi:

Onam "erkam" deb quchganda tunlar yarim,

erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim.

Parovozni hansiratgan bug'doylarim,

Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,

Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Shoir keyingi misralarda o'zbek tiliga va uning rivojiga benihoya katta hissa qo'shgan "g'azal mulkingning sultoni" Mir Alisher Navoiyning ona tilimizga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromini quyidagicha qayd qilib o'tadi:

Sen bo'lmasang, nima bizga silliq she'rlar,

Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar.

Bahoying-ku berib ketgan Alisherlar,

Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,

Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Shukur Qurbonning "Ona tilim" qasidasida ona tilining manguligi, barhayotligi oldida inson umrining bir lahzalik xotira ekanligini ta'kidlanadi:

Sen mangusan, baqosan,

Men esam – o'tkinchi zot.

Sen hamisha bahorsan,

Men – lahzalik xotirot.

Ona tilim, jon tilim.

Xulosa

Ona tili, milliy o'zlikni anglash va madaniyatni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Tili orqali xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlari va madaniy merosi kelajakka yetkaziladi. Ona tili, nafaqat aloqa vositasi, balki milliy ma'naviyatning, madaniyatning va umuman jamiyatning poydevori sifatida xizmat qiladi. O'zbek tili milliy o'zlik va madaniyatni ifodalovchi eng muhim vosita bo'lib, uni asrab-avaylash, o'rganish va rivojlantirish millatning kelajagi uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saparboyev I. Ona tili va adabiyoti fani bo'yicha o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish yuzasidan yo'riqnoma. – Toshkent, 2014.
2. Turg'unov S.T, Daniyarov B.X, Umaraliyeva M.A, Shodmonova Sh.S, Turg'unova Sh.M, Tojiboyeva H.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Sano-standart, 2012.
3. <http://uzedu.uz/>
4. Ona tili, 5-sinf o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020.
5. Ona tili, 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2017. 6. Hasanboev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.



6. 7. Matchanov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2021.
7. 8. Gulomov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. 69-bet.
8. 9. Gulomov A., Ne‘matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.